


TASDIQLAYMAN

«Kiberxavfsizlik markazi»
DUK direktori

O.N. Mirzayev
« _____ » _____ 2022-yil

« Yuridik va jismoniy shaxslar uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, axborot va kiberxavfsizlik sohasida konsultativ, axborot-tahliliy xizmatlar ko'rsatish » bo'yicha Reglamenti

1. Xizmat tavsifi (pasport)

1.1. Xizmat nomi

Yuridik va jismoniy shaxslar uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, axborot va kiberxavfsizlik sohasida konsultativ, axborot-tahliliy xizmatlar ko'rsatish.

1.2. Xizmat natijasi

Buyurtmachi quyidagilarni oladi:

Bajarilgan pullik xizmat (ish) natijalari bo'yicha hisobotlar, ma'lumotnomalar, mutaxassisi xulosalari shaklida rasmiylashtirilib buyurtmani bajargan mutaxassisi imzosi bilan taqtim etiladi.

1.3. Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot va blankalarni qabul qilish joyi

“Kiberxavfsizlik markazi” Davlat unitar korxonasi (keyingi o'rinlarda – Markaz).

Manzil: O'zbekiston Respublikasi, 100001, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Taras Shevchenko ko'chasi, 20 uy

1.4. Huquqiy asoslar

“Kiberxavfsizlik to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi qonuni, “O'zbekiston Respublikasida kiberxavfsizlik tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2020-yil 15-iyundagi 4751-xdfu-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezident qarori hamda Markaz ustavi.

1.5. Xizmatni oluvchilar

Yuridik va jismoniy shaxslar

1.6. Xizmatlarni olish uchun ariza berish shartlari

Yozma ariza yuridik shaxsning ixtiyoriyligiga binoan beriladi.

1.7. Bajarish muddati

Bajarish muddatlari shartnomaga muvofiq belgilanadi.

1.8. Tasdiqlashning berish muddati

Ikki tomonlama shartnoma tuzilgandan so'ng, ijrochi ishni boshlaydi.

2. Xizmatni oluvchilarni xabardor qilish

2.1. Ma'lumotlarning tarkibi va hajmi

Har qanday arizachiga quyidagi ma'lumotlarni taqdim etilishi kafolatlanadi:

- xizmat ko'rsatuvchi organning joylashgan joyi to'g'risida, ish tartibi, qabul qilish tartiblari (telefon orqali oldindan ro'yxatdan o'tish, murojaat qilingan kuni o'zida qabul qilish, jonli navbat va boshqalar);

- xizmatlarni olish tartiblari haqida;

- xizmat ko'rsatish muddati haqida;

- xizmat ko'rsatish reglamentning mavjudligi va reglament bilan tanishish usullari haqida.

2.2. Keng xabardor qilish

Xizmat ko'rsatish haqida quyidagi m'lumot olish mumkin:

- manzil bo'yicha: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Taras Shevchenko ko'chasi, 20-uy;

- telefon orqali: (99871) 203-12-26;

- Markazning "www.csec.uz" va UZCERT xizmati "www.uzcert.uz" rasmiy veb-saytlari orqali.

2.3. Murojaatga binoan xabardor qilish

- Shaxsan: ariza beruvchi xizmatni olish va xizmat bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar, to'lov rekvizitlari va talab qilinadigan hujjatlar ro'yxatini taqdim etish bo'yicha har qanday savollar bilan soat 9:00 dan 18:00 gacha murojaat qilishi mumkin.

- Telefon orqali: 9:00 dan 18:00 gacha katta hajmdagi ma'lumotlarni, masalan, to'lov uchun bank rekvizitlarini aniq uzatishni talab qilmaydigan xizmatni olishning har qanday masalalari bo'yicha og'zaki maslahat.

- Elektron pochta orqali.

2.4. Xizmat ko'rsatish joyi to'g'risida ma'lumot berish

Bosh ofis: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Taras Shevchenko ko'chasi, 20-uy;

2.5. Amaldagi hujjatlar blanklari (shakllari)

Tomonlar o'rtasida shartnoma tuziladi, unda qo'shimcha ravishda ishning narxini hisoblash, ish jadvali va boshqa zarur arizalar mavjud.

3. Xizmatni taqdim etish

3.1. Ish vaqti

Ish vaqti 9:00 dan 18:00 gacha. Tushlik 13:00 dan 14:00 gacha. Dam olish kunlari: shanba, yakshanba.

4. Xizmat ko'rsatish tartibi

4.1. Zarur bo'lgan hujjatlar

Buyurtmachi Markazga 1-ilovada keltirilgan ro'yxatga muvofiq zarur xizmat ko'rsatilgan holda istalgan shaklda yozma so'rov yoki Markazning rasmiy veb-sayti "www.csec.uz" va Axborot xavfsizligi hodisalariga chora ko'rish xizmatining "www.uzcert.uz" veb-sayti orqali ariza qoldirish formasini to'ldirgan holda elektron ariza yo'llaydi;

4. Xizmat ko'rsatish tartibi

4.1. Zarur bo'lgan hujjatlari

Xizmatni ko'rsatish uchun 2.5-bandida ko'rsatilganlardan tashqari boshqa hujjatlarni ro'yxatdan o'tkazish talab qilinmaydi.

4.2. Xizmat haqi

Yuridik va jismoniy shaxslar uchun xizmat pullik asosda ko'rsatiladi, xizmat narxi shartnomada kelishiladi.

4.3. Xizmat ko'rsatish bosqichlari

Xizmat ushbu Reglamentga 1-ilovaga muvofiq ariza-xati asosida taqdim etiladi. Shu bilan birga, arizachi 3 (uch) ish kuni ichida bepul diagnostika va ish hajmini aniqlash uchun elektron ma'lumot tashuvchi vositani taqdim etadi, shundan so'ng xizmatlar ko'rsatish shartnomasi tuziladi.

Xizmat ko'rsatish bosqichlari ushbu Reglament 2-ilovasiga muvofiq sxema shaklida taqdim etilgan, va shuningdek, quyidagi bandlarini o'z ichiga oladi:

- Ijrochining manziliga, ariza shaklini to'ldirish va xizmatni olish uchun yuborish;

- Ijrochiga bepul diagnostikani o'tkazish va ishning murakkabligini aniqlash uchun elektron ma'lumot tashuvchi vositasi bilan ta'minlash;

- xizmat ko'rsatish uchun shartnoma imzolash va shartnoma imzolangan kundan boshlab 10 kun ichida pul mablag'larini o'tkazish;

- xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni amalga oshirish to'lov Ijrochining hisobiga tushgan kundan boshlanadi;

- arizachiga tiklangan ma'lumotlar va elektron ma'lumot tashuvchi vositasini taqdim etish;

- 3 (uch) kun ichida arizachi tomonidan ko'rsatilgan xizmat uchun asosli da'volar bo'lmasa, ko'rsatilgan xizmat qabul qilingan hisoblanadi.

4.4. Rad etish uchun asoslar

- xizmat uchun murojaat qilgan shaxs uni olish huquqiga yoki boshqa shaxs nomidan harakat qilish huquqiga ega emasligi;

- ma'lumotlarni kafolatlangan yo'q qilish algoritmlaridan foydalangan holda ma'lumotlarni o'chirish tufayli elektron ma'lumot tashuvchi vositasidan ma'lumotlarni qayta tiklay olmaslik;

- elektron ma'lumot tashuvchi vositalaridan yo'qolgan raqamli ma'lumotlarni qayta tiklash uchun texnik imkoniyatlarning yo'qligi;

5. Sifat ta'minlashi

5.1. Sifat ko'rsatkichlari

Agar arizachida ko'rsatilgan xizmat natijalari bo'yicha asosli da'volari bo'lsa, xizmat sifatsiz ko'satilgan deb hisoblanadi.

5.2. Xizmat natijalariga shikoyat qilish

Xizmatni oluvchi Markaz rahbari nomiga ko'rsatilgan xizmat natijalari bilan rozi bo'lmaslik sabablarini ko'rsatgan holda rasmiy xat bilan murojaat qilishi yoki

Markaz va Arizachi o'rtasida ushbu xizmatni ko'rsatish uchun tuzilgan shartnoma yoki amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan tartibda shikoyat qilish mumkin.

Ishlab chiqdi:

Tekshirish bo'limi boshlig'i

20__ - yil " __ " - _____



A.Kusayev

KELISHILGAN:

“Kiberxavfsizlik markazi” DUK
direktori o'rinbosari



Sh.Gafurov

UZCERT departamenti
boshlig'i



A.Gafurov

Bosh buxgalter



I.Abdullayev

Yuridik byuro boshlig'i




I.Soliyev

Yetakchi iqtisodchi



M.Erxanov



« Yuridik va jismoniy shaxslar
uchun axborot-kommunikatsiya
texnologiyalari, axborot va
kiberxavfsizlik sohasida
konsultativ, axborot-tahliliy
xizmatlar ko'rsatish uchun xizmat
turi Reglamentiga Ilova №1

Muassasa firma blankasiga

«Kiberxavfsizlik markazi» DUK
direktori O.N.Mirzayevga

№ _____

ARIZA

**Yuridik va jismoniy shaxslar uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, axborot
va kiberxavfsizlik sohasida maslahat, axborot-tahliliy xizmatlar ko'rsatish xizmat turi**

*(tashkilot nomi, arizachining I.F.Sh.)
haqida so'raydi*

(hizmatning nomlanishi)

Ariza beruvchi zarur hujjatlarni taqdim etishga, hamda ishlash va xizmat
ko'rsatish uchun shart-sharoitlar yaratishga tayyor.
Ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'z vaqtida to'lov kafolatlanadi

Tashkilot rahbari
(lavozim)

shaxsiy imzo

M.O'.

« Yuridik va jismoniy shaxslar uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, axborot va kiberxavfsizlik sohasida maslahat, axborot-tahliliy xizmatlar ko'rsatish uchun xizmat turi Reglamentiga Ilova №2

Yuridik va jismoniy shaxslar uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, axborot va kiberxavfsizlik sohasida maslahat, axborot-tahliliy xizmatlar ko'rsatish xizmatini pullik asosda taqdim etish sxemasi

